



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
IV-QISM**



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
IV-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL ENERGIYA SEKTORIDA VENCHUR INVESTITSIYALARINING RIVOJLANISHI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON IMKONIYATLARI	12
Qarajanova Gulnoza Tolliyevna	
MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	19
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGINI IQLIM VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARGA MOSLASHTIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	23
Mirzataev Salamat Muratbaevich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA MEVACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISHNING ISHLAB CHIQRISH VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	28
Tureev Azizbek Abatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH XIZMATLARINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELI.....	32
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	37
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL INSURANCE MARKET AND THE LEVEL OF INCLUSIVENESS.....	43
Ravshanova Mohinur O'rolovna	
O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	51
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	55
Qaraev Anvar Botirovich	
THE IMPACT OF LOYALTY PROGRAMS ON CUSTOMER RETENTION IN ONLINE COSMETICS: A MIXED-METHODS STUDY	61
Toirova Mubina	
IQLIM O'ZGARISHI VA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING JAHON MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI.....	66
Qo'chqorova Muxlisaxon Ulug'bek qizi	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIDA RAQAMLI PLATFORMALAR - ELEKTRON TIJORAT SAYTLARI, MARKETPLEYSLAR VA MOBIL ILOVALARNING O'RNI.....	73
Rizayeva Nilufar Oblakulovna	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI	79
Abdulla Mavlonov	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI LOGISTIKASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BOZOR INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	82
Komekova Gulzira Sharbaevna	



МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К АГРЕГИРОВАНИЮ РАЗРОЗНЕННЫХ ДАННЫХ В ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ	87
Бекматов Акмал Курбонмахматович	
SUG'URTA TASHKIOTLARIDA MHXSGA O'TISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	93
Azamatova G. I.	
O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNING XARAJAT-FOYDA TAHLILI	98
Omonov Olim Murodullayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	104
Isxakova Sarvar Ayubovna	
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В КРЕДИТНОМ СКОРИНГЕ РОЗНИЧНЫХ ЗАЁМЩИКОВ: ОПЫТ АКБ «КАПИТАЛБАНК» (РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН)	109
Жанайдарова Камола Абаевна	
INVESTITSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHDA IPO VA KORPORATIV OBLIGATSIYALAR SAMARADORLIGI	115
G'afurov Sherzod Abdvaxob o'g'li	
O'ZBEKISTON TURIZM BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARNING AHAMIYATI	120
Usmanova Zumrad Islamovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL VODOROD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING BIZNES VA INVESTITSION MEKANIZMLARI	123
Nuraliyeva Komila Sanaqulovna	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI: SOLIQ ISLOHOTLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	130
Utkirova Jasmina Jasur qizi	
XORIJIY DAVLATLAR AMALIYOTIDA XUSUSIY INVESTITSİYALAR VA AHOLI DAROMADLARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI	135
Salimova Zaxro Sobirjon qizi	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI VA BASHORATI	141
Xakimov D.R.	
ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА НА ЗАНЯТОСТЬ: ОПТИМИЗАЦИЯ И ТРАНСФОРМАЦИЯ РАБОЧИХ МЕСТ	151
Эркинбаева Камила Жавлонбековна	
TIJORAT BANKLARI MOLİYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	156
Tangirkulov Bekzod Boxadirovich	
HUDUDLARDA TURISTLARGA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNING SAMARALI RIVOJLANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH: RFEI INDEKSI, KLASSTER MODELI VA "TASTE UZBEKISTAN" RAQAMLI EKOTIZIMI	162
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
SAVDODA MARKETING TADQIQOTLARINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	171
Jalalova Dildora Jamolovna	
КЛИМАТИЧЕСКОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В КОНТЕКСТЕ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	174
Лана Цхай	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNI MOLİYAVIY HISOBOTDA AKS ETTIRISHNI MASALALARI	181
G'oziyeva Moxira Rustam qizi	



TA'LIM MUASSASALARIDA LIDERLIK SAMARADORLIGINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	189
Yuldashova Yoqutoy	
KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RAQAMLI KREDITLASHNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI	193
Karimova Aziza Maxomadrizoyevna Abduraxmonov Faridun Firo'z o'g'li	
SANOAT TARMOQLARIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA KONSEPSIYASINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MAZMUNI	199
Mamarasulova Iroda Zafarjon qizi	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРИЯ, ОТРАСЛЕВАЯ СПЕЦИФИКА И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ.....	204
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
ENHANCING GREEN ACCOUNTING IN UZBEKISTAN: COMPARATIVE LESSONS FROM DEVELOPED ECONOMIES FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT	210
Xolmurodova Durdona Otamurod qizi	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ, СОЦИАЛЬНЫЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	218
Саттарова Зухра Илхомовна	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING HUDUDIY INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIRI	224
Toirjonov Sardorbek Dilshodjon o'g'li	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNING BANDLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	229
Mamadaliyev Doniyorbek Shuhratbek o'g'li	
TOSHKENTDA KICHIK BIZNES KORXONALARIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI: LOGIT VA PROBIT MODELLARI ASOSIDA EMPIRIK TAHLIL	235
Hasan Ibragimov Mannonov Shahzod Toshmurod Qulmanov	
MOSLASHUVCHAN MENEJMENT VA UNING SIFAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI	242
Ibroximova Zuhra Baxtiyor qizi	
IJTIMOIIY SOHANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	247
Ro'zmetov Kamol Ibodullayevich Ibragimov Qayumbek Ikromovich	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI.....	254
Muminov Bekzod Polvonovich	
KORPORATIV AXBOROT TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH KONSEPSIYASINING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TASNIFI.....	263
Kuchkarov Ulug'bek Tahirovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MINTAQALARIDA EKSPORT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	268
Abdulatifova Moxinur Alisher qizi	
FIZIKA FANINI SUN'IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI ASOSIDA SAMARALI O'QITISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	275
Razzoqov I.D.	
RAQAMLI MEHNAT BOZORLARI VA IQTISODIY BARQARORLIK: O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON MISOLIDA QIYOSIY TAHLIL	281
Safarova Gulruh Akmal qizi	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ КАТЕГОРИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ И НАУЧНЫЙ	



ПОДХОД К ЕЁ ОПРЕДЕЛЕНИЮ.....	287
Зайналов Ж. Р.	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O'RNI.....	293
Xolmatova Mumtozbegim Alisherxon qizi	
TURISTIK BOZOR KONYUNKTURASINI O'RGANISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI.....	298
Usmanova Zumrad Islamovna	
PREPARATION OF NUT JAM USING MULBERRY SYRUP BASED ON ITS CONSUMER PROPERTIES.....	302
Pardaev Gayrat Yakhshibaevich	
BUXORO TARIXIY MARKAZIDAGI MEROS OBYEKTLARINING TURISTIK SIG'IM IMKONIYATLARI.....	306
Tolibova Shaxrizoda	
КОМПЛЕКСНЫЙ НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ОТЧЕТ: ТРАНСФОРМАЦИЯ, ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ СТРАХОВОГО РЫНКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	314
Махмудов Комолиддин Розметович	
SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT IN DEVELOPING COUNTRIES: THE SYNERGY OF INVESTMENT, AGRICULTURAL TRANSFORMATION, AND ENVIRONMENTAL POLICY.....	319
Kholmukhamedova Feruza	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA EKSPORT OPERATSIYALARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	324
Mir Axmadova Mariyam Nosir Axmadovna	



IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA EKSPORT OPERATSIYALARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Mir Axmadova Mariyam Nosir Axmadovna
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
Iqtisodiyot va menejment kafedrası doktoranti
ORCID: 0009-0007-8532-8265

Annotatsiya. Maqolada iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda eksport operatsiyalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Eksportoldi moliyalashtirish, eksport kreditlarini sug'urtalash, kafolat va kompensatsiya instrumentlari, transport hamda sertifikatlash xarajatlarini qisman qoplash, faktoring va forfeyting operatsiyalari eksportchi korxonalarining aylanma mablag'lari uzluksizligini ta'minlovchi yagona moliyaviy ekotizim sifatida talqin qilingan. Tadqiqotda eksportni moliyalashtirish vositalari faqat tashqi savdo aylanmasini oshirish vositasi emas, balki valyuta tushumlari barqarorligi, ishlab chiqarish zanjirlarining uzluksizligi, bank tizimi likvidligi va makroiqtisodiy muvozanatga ta'sir etuvchi institutsional mexanizm ekani asoslangan. Eksport operatsiyalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning maqsadli, natijaga yo'naltirilgan va riskka moslashtirilgan modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: eksport operatsiyalari; iqtisodiy barqarorlik; eksportoldi moliyalashtirish; eksport krediti; kafolat; sug'urta; kompensatsiya; faktoring; forfeyting; valyuta tushumi; moliyaviy qo'llab-quvvatlash; tashqi savdo; risklarni boshqarish.

Аннотация. В статье исследованы теоретико-методологические и практические аспекты совершенствования механизмов финансовой поддержки экспортных операций в обеспечении экономической устойчивости. Предэкспортное финансирование, страхование экспортных кредитов, гарантийные и компенсационные инструменты, частичное возмещение транспортных и сертификационных расходов, а также факторинговые и форфейтинговые операции рассматриваются как единая финансовая экосистема, обеспечивающая непрерывность оборотных средств экспортирующих предприятий. Обосновано, что инструменты финансирования экспорта являются не только средством увеличения объёмов внешней торговли, но и институциональным механизмом, влияющим на стабильность валютных поступлений, непрерывность производственных цепочек, ликвидность банковской системы и макроэкономическое равновесие. Предложена целевая, ориентированная на результат и адаптированная к рискам модель финансовой поддержки экспортных операций.

Ключевые слова: экспортные операции; экономическая устойчивость; предэкспортное финансирование; экспортный кредит; гарантия; страхование; компенсация; факторинг; форфейтинг; валютные поступления; финансовая поддержка; внешняя торговля; управление рисками.

Abstract. The article examines the theoretical, methodological, and practical aspects of improving financial support mechanisms for export operations in ensuring economic stability. Pre-export financing, export credit insurance, guarantee and compensation instruments, partial reimbursement of transportation and certification costs, as well as factoring and forfeiting operations are interpreted as an integrated financial ecosystem that ensures the continuity of working capital for exporting enterprises. The study substantiates that export financing instruments are not only a means of increasing foreign trade turnover but also an institutional mechanism affecting the stability of foreign exchange earnings, the continuity of production chains, banking system liquidity, and macroeconomic equilibrium. A targeted, results-oriented, and risk-adjusted model for the financial support of export operations is proposed.

Keywords: export operations; economic stability; pre-export financing; export credit; guarantee; insurance; compensation; factoring; forfeiting; foreign exchange earnings; financial support; foreign trade; risk management.



KIRISH

Jahon iqtisodiyotida geosiyosiy beqarorlik, transport-logistika zanjirlaridagi uzilishlar, xalqaro bozorlarda narx kon'yunkturasi tez o'zgarishi va moliyaviy resurslar qimmatlashuvi eksport operatsiyalarini amalga oshiruvchi korxonalar uchun yangi risklarni yuzaga keltirmoqda. Eksportchi korxonalar nafaqat mahsulot ishlab chiqarish va yetkazib berish, balki kontraktning moliyalashtirish, tashqi xaridorning to'lov intizomini baholash, valyuta tushumlarini o'z vaqtida qaytarish va logistika xarajatlarini qoplash kabi ko'p bosqichli moliyaviy qarorlar tizimi bilan to'qnashadi. Shu sababli eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda alohida strategik ahamiyatga ega bo'lgan institutga aylanmoqda.

O'zbekistonda eksport salohiyatini oshirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yakunlari bo'yicha respublika tashqi savdo aylanmasi 81,2 mlrd. AQSh dollaridan oshgan, eksport hajmi 33,8 mlrd. AQSh dollariga yetgan va o'tgan yilga nisbatan 24,0 foizga o'sgan. Mazkur o'sish tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayganini ko'rsatadi, biroq eksportni barqaror moliyalashtirish mexanizmlari takomillashmas ekan, eksport hajmlarining yuqori sur'atlarini uzoq muddat saqlab qolish qiyinlashadi.

Eksport operatsiyalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning mohiyati eksportchi korxonalarining shartnoma bajarilishidan oldingi va keyingi davrda yuzaga keladigan moliyaviy bo'shliqlarini qisqartirishdan iborat. Eksportoldi moliyalashtirish korxonaning xom ashyo, material, ish haqi va logistika xarajatlarini qoplashga xizmat qilsa, eksport kreditini sug'urtalash va kafolatlar tashqi xaridorning to'lovsizlik xavfini kamaytiradi. Transport, sertifikatlashtirish, xalqaro ko'rgazmalar va marketing xarajatlarini kompensatsiya qilish esa eksport geografiyasini kengaytirishni rag'batlantiradi.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash sharoitida eksport operatsiyalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun eksportni moliyalashtirishning nazariy asoslari, xalqaro tajriba, O'zbekistondagi me'yoriy-institutsional muhit, eksportchi korxonalarining moliyaviy ehtiyojlari va qo'llab-quvvatlash instrumentlarining samaradorligi tahlil qilindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eksport operatsiyalarini moliyalashtirish nazariyasi xalqaro savdo, korporativ moliya va moliyaviy vositachilik nazariyalari kesishmasida shakllanadi. Xalqaro savdo nazariyasida eksport bozorlariga chiqish korxonaning raqobat ustunligi, ishlab chiqarish masshtabi va mahsulot sifatini oshirish bilan bog'lansa, moliyaviy nazariyalarda eksport qarorlari aylanma kapital, kreditdan foydalanish imkoniyati va risklarni taqsimlash mexanizmlari bilan izohlanadi. Shu nuqtai nazardan eksportchi korxonalar uchun moliyaviy resurslarning mavjudligi tashqi bozordagi talabdan kam ahamiyatga ega emas.

Xorijiy tadqiqotlarda eksport kreditlari va sug'urta mexanizmlari tashqi savdo bitimlarida axborot asimmetriyasi hamda to'lovsizlik xavfini kamaytiruvchi institutlar sifatida baholanadi. Eksportchi korxonalar yangi bozorga kirganda xaridorning moliyaviy holati, mamlakat xavfi, valyuta cheklovlari va huquqiy muhit haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmasligi mumkin. Bunday sharoitda eksport kredit agentliklari, sug'urta kompaniyalari va kafolat institutlari xususiy sektor qabul qila olmaydigan risklarni qisman o'z zimmasiga oladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda eksportoldi moliyalashtirish ishlab chiqarish sikli bilan to'lov tushumi o'rtasidagi vaqt tafovutini qoplovchi moliyaviy instrument sifatida talqin qilinadi. Eksport shartnomasi tuzilgandan so'ng korxonalar tovarni tayyorlash, qadoqlash, sertifikatlashtirish va tashish xarajatlarini oldindan amalga oshiradi, valyuta tushumi esa faqat mahsulot yetkazib berilgandan keyin shakllanadi. Shu bois eksportoldi kreditlari aylanma kapitalning uzilishini kamaytirib, korxonaning kontraktlarni o'z vaqtida bajarish qobiliyatini oshiradi.

Mahalliy tadqiqotlarda eksportni qo'llab-quvvatlash masalalari ko'proq eksport salohiyati, valyuta tushumlari va tashqi savdo balansini yaxshilash nuqtai nazaridan yoritiladi. Biroq eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning bank likvidligi, sug'urta bozori, faktoring xizmatlari, logistika xarajatlari va institutsional monitoring bilan o'zaro bog'liq tizim sifatida o'rganilishi hali yetarlicha chuqurlashmagan. Mazkur maqola ushbu ilmiy bo'shliqni qisman to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, institutsional tahlil, iqtisodiy guruhlash, mantiqiy umumlashtirish va iqtisodiy interpretatsiya usullaridan foydalanildi. Eksport operatsiyalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari eksportchi korxonalar, tijorat banki, sug'urta tashkiloti, davlat jamg'armasi va tashqi xaridor o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar zanjiri sifatida qaraldi.



Tahlilda eksportoldi moliyalashtirish, eksport kreditlarini sug'urtalash, bank kafolatlari, transport xarajatlarini kompensatsiya qilish, sertifikatlashtirish xarajatlarini qoplash, faktoring va forfeiting instrumentlarining iqtisodiy mazmuni alohida baholandi. Shuningdek, moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlarining iqtisodiy barqarorlikka ta'siri valyuta tushumlari barqarorligi, ishlab chiqarishning uzluksizligi, eksport geografiasining kengayishi va ish o'rinlarining saqlanishi orqali izohlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Eksport operatsiyalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi bir nechta o'zaro bog'liq instrumentlardan iborat. Ularning har biri eksport jarayonining muayyan bosqichida moliyaviy cheklovlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Birinchi bosqichda eksportoldi moliyalashtirish ishlab chiqarish va kontrakt tayyorgarligi xarajatlarini qoplaydi. Ikkinchi bosqichda kafolat va sug'urta mexanizmlari banklar hamda eksportchilar uchun risklarni pasaytiradi. Uchinchi bosqichda transport, marketing, sertifikatlashtirish va xalqaro savdo infratuzilmasi xarajatlarini kompensatsiya qilish eksport geografiasini kengaytiradi. To'rtinchi bosqichda faktoring va forfeiting valyuta tushumlarini tezlashtirib, debitorlik qarzlarni likvid aktivlarga aylantiradi (1-jadval).

1-jadval

Eksport operatsiyalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlarining iqtisodiy mazmuni¹

T/r	Instrument	Asosiy vazifasi	Iqtisodiy natijasi
1.	Eksportoldi moliyalashtirish	Xom ashyo, ish haqi, qadoqlash va logistika xarajatlarini kontrakt bajarilishidan oldin moliyalashtirish	Aylanma kapital uzilishi kamayadi, eksport shartnomasi o'z vaqtida bajariladi
2.	Eksport krediti sug'urtasi	Tashqi xaridorning to'lovsizligi, siyosiy va tijorat risklarini qisman qoplash	Banklar va eksportchilarning risk qabul qilish qobiliyati oshadi
3.	Kafolat va kafillik	Kredit ta'minoti yetarli bo'lmagan eksportchi uchun bank kreditini olish imkoniyatini kengaytirish	Kreditga kirish imkoniyati oshadi, eksportchi sub'ektlar qamrovi kengayadi
4.	Kompensatsiya va subsidiyalar	Transport, sertifikatlashtirish, ko'rgazma va marketing xarajatlarini qisman qoplash	Yangi bozorlarga chiqish xarajatlari pasayadi
5.	Faktoring va forfeiting	Eksport debitor qarzlarni tezkor pul oqimiga aylantirish	Valyuta tushumi tezlashadi, likvidlik mustahkamlanadi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash alohida subsidiya yoki imtiyozlar yig'indisi emas, balki eksport zanjirining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi kompleks moliyaviy mexanizmdir. Bunday yondashuvda davlatning vazifasi bozor ishtirokchilari o'rnini bosish emas, balki xususiy moliya institutlari uchun risklarni oqilona taqsimlash va eksportchi korxonalarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishdan iborat.

O'zbekistonda eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning institutsional asoslari bosqichma-bosqich shakllantirilgan. 2019-yilda eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug'urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirishga qaratilgan qaror qabul qilindi. 2020-yilda eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish bo'yicha choralar belgilandi. 2021-yilda eksport bilan bog'liq savdo va eksportoldi operatsiyalarini moliyalashtirish uchun maxsus moliyaviy resurslar ajratish mexanizmlari mustahkamlandi.

Eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash iqtisodiy barqarorlikka to'rt kanal orqali ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, eksportchi korxonalarining aylanma mablag'lari mustahkamlanib, ishlab chiqarishning uzluksizligi ta'minlanadi. Ikkinchidan, valyuta tushumlari barqarorlashib, to'lov balansiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, tashqi bozorlardagi risklar sug'urta va kafolatlar orqali taqsimlanadi. To'rtinchidan, eksportdan olingan daromadlar ish haqi, soliq tushumlari va investitsiyalar orqali ichki iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlaydi (2-jadval).

1 **Manba:** muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 24 maydagi PQ-4337-son "Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug'urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2020 yil 21 oktabrdagi PF-6091-son "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda 2021 yil 13 iyuldagi PQ-5184-son "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida ishlab chiqilgan.



2-jadval

Eksport operatsiyalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlariga ta'siri²

T/r	Ta'sir yo'nalishlari	Moliyaviy mexanizm	Barqarorlikka ta'siri
1.	Valyuta tushumlari	Eksportoldi kreditlari, faktoring, forfeyting	Eksport tushumlari davriyligi va prognozlanuvchanligi oshadi
2.	Ishlab chiqarish uzluksizligi	Aylanma mablag'larni moliyalashtirish, bank kafolatlari	Kontraktlarni bajarishda moliyaviy uzilishlar kamayadi
3.	Risklarni taqsimlash	Eksport kredit sug'urtasi, kafillik, qayta sug'urta	Xaridor va mamlakat risklari cheklanadi
4.	Bozorga kirish xarajatlari	Transport, sertifikatlashtirish va marketing kompensatsiyasi	Yangi tashqi bozorlarga chiqish imkoniyati kengayadi
5.	Institutsional ishonch	Shaffof monitoring, elektron platformalar, reyting baholash	Banklar va eksportchilar o'rtasida prognozlanuvchan muhit shakllanadi

Eksport operatsiyalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samaradorligi moliyaviy resurslar hajmi bilan emas, balki ushbu resurslarning eksport natijalariga bog'liqligi bilan baholanishi zarur. Agar qo'llab-quvvatlash eksport shartnomasi, valyuta tushumi, yangi bozorga chiqish, mahsulotning qo'shimcha qiymati va ish o'rinlarining saqlanishi kabi ko'rsatkichlar bilan bog'lanmasa, uning fiskal samarasi pasayadi. Shu sababli maqsadlilik, natijadorlik va riskka asoslangan tanlov prinsiplari asosiy mezon bo'lishi kerak.

Eksportoldi moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishda tijorat banklarining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Banklar eksport shartnomasi, xaridor tarixi, mahsulot bozori va valyuta tushumi ehtimolini baholagan holda kredit ajratadi. Biroq ko'plab kichik va o'rta eksportchilarda yetarli garov bazasi mavjud emas. Shu bois davlat kafolatlari va sug'urta instrumentlari banklar uchun kredit risklarini pasaytirib, eksportchi subyektlarning moliyaviy qamrovini kengaytirishi lozim.

Eksport kreditlarini sug'urtalash xalqaro amaliyotda eksportni qo'llab-quvvatlashning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. U tashqi xaridorning to'lovni kechiktirishi yoki umuman to'lamasligi bilan bog'liq xavfni kamaytiradi. Bunday sug'urta bankka kreditni nisbatan past risk bilan ajratish, eksportchiga esa yangi xaridor bilan ishlash imkonini beradi. Shu jihatdan eksport kredit sug'urtasi moliyaviy barqarorlikning xususiy va davlat sektorlari o'rtasidagi risk taqsimotiga asoslangan institutsional shaklidir.

Tadqiqot natijalari asosida eksport operatsiyalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy takliflar asoslanadi. Ushbu takliflar eksportchi korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, eksport geografiyasini kengaytirish, valyuta tushumlari uzluksizligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan.

1. Eksportoldi moliyalashtirishni eksport shartnomasi va valyuta tushumi prognozlariga bog'langan holda riskka asoslangan skoring tizimi orqali amalga oshirish.

Mazkur taklif bank kreditini ajratish jarayonida faqat garov ta'minotiga emas, balki eksport shartnomasining sifati, tashqi xaridor tarixi, mahsulot bozori, valyuta tushumi muddati va eksportchining oldingi majburiyatlarni bajarish intizomiga asoslanishni nazarda tutadi. Bu yondashuv kichik va o'rta eksportchilar uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi, banklar uchun esa kredit risklarini aniq baholash imkonini yaratadi.

2. Eksport kreditlarini sug'urtalash va bank kafolatlarni yagona elektron platformada integratsiya qilish.

Sug'urta, kafolat va kredit arizalari alohida tartiblarda ko'rib chiqilganda eksportchi uchun vaqt va ma'muriy xarajatlar oshadi. Yagona elektron platforma eksport shartnomasi, sug'urta polisi, kafolat xati va kredit ajratish jarayonlarini o'zaro bog'laydi. Natijada eksportchi uchun "bir darcha" tamoyili yuzaga keladi, moliyaviy institutlar o'rtasida ma'lumot almashinuvi tezlashadi va eksport operatsiyalarining shaffofligi oshadi.

3. Transport, sertifikatlashtirish va tashqi bozorga kirish xarajatlarni kompensatsiya qilishni eksport natijalari bilan bog'lash.

Kompensatsiya mexanizmlari eksportchi korxonaga xarajatlarni qisman qoplab berish bilan cheklanmasligi, balki yangi eksport bozori, shartnoma hajmi, mahsulotning qo'shimcha qiymati va valyuta tushumi kabi natijaviy mezonlar bilan bog'lanishi lozim. Bu budjet mablag'larining maqsadli ishlatilishini ta'minlaydi va eksportni

2 **Manba:** muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 24 maydagi PQ-4337-son "Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug'urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2020 yil 21 oktabrdagi PF-6091-son "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda 2021 yil 13 iyuldagi PQ-5184-son "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida ishlab chiqilgan.



diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

4. Eksport faktoringi va forfeytingini rivojlantirish orqali debitor qarzlarni likvid aktivlarga aylantirish.

Eksport operatsiyalarida to'lov muddati kechikkan shartnomalar korxonalar likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Faktoring va forfeyting mexanizmlari eksportchining debitor qarzlarni bank yoki moliyaviy tashkilot orqali oldindan pulga aylantirish imkonini beradi. Bu aylanma mablag'lar uzluksizligini ta'minlaydi va yangi eksport shartnomalarini moliyalashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

5. Eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash samaradorligini KPI va post-monitoring tizimi asosida baholash.

Qo'llab-quvvatlash instrumentlari bo'yicha ajratilgan resurslarning natijasi eksport hajmi, valyuta tushumi, yangi bozorlar soni, mahsulotning qo'shimcha qiymati, kredit qaytimi va ish o'rinlari ko'rsatkichlari orqali baholanishi kerak. Post-monitoring mexanizmi orqali samara bermagan instrumentlar qayta ko'rib chiqiladi, yuqori natija bergan yo'nalishlarga esa resurslar qayta taqsimlanadi.

Xalqaro amaliyotda eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash asosan eksport kredit agentliklari, ixtisoslashgan banklar, sug'urta kompaniyalari va davlat kafolat institutlari orqali amalga oshiriladi. Rivojlangan mamlakatlarda bunday institutlar eksportchi korxonalarining xorijiy xaridorlar bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzishida moliyaviy kafolat beradi. Ularning vazifasi faqat eksportchiga arzon resurs ajratish emas, balki tashqi bozorlardagi ma'lumot yetishmasligi, siyosiy risklar, to'lov intizomi va valyuta cheklolari bilan bog'liq xavflarni tizimli baholashdan iborat.

Eksport kredit agentliklari faoliyatida "qo'shimchalik" tamoyili muhim o'rin tutadi. Bu tamoyilga ko'ra, davlat moliyaviy qo'llab-quvvatlashi xususiy banklar mustaqil ravishda moliyalashtirishga tayyor bo'lmagan, ammo iqtisodiy jihatdan istiqbolli eksport operatsiyalariga yo'naltiriladi. Shu orqali davlat bozor mexanizmlarini siqib chiqarmaydi, aksincha, ularning faolligini oshiradi. O'zbekiston sharoitida ham eksportni qo'llab-quvvatlash instrumentlari xususiy banklar va sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlashi maqsadga muvofiq.

Xorijiy tajribada eksport kredit sug'urtasi ko'pincha mamlakat xavfi, xaridorning to'lov tarixi, shartnoma muddati va tovar turi bo'yicha differensial tariflar asosida tashkil etiladi. Bu model milliy amaliyot uchun ham muhim, chunki barcha eksport shartnomalari bir xil riskka ega emas. Masalan, doimiy xaridorga qisqa muddatli tovar yetkazib berish bilan yangi bozorga uzoq muddatli to'lov sharti asosida mahsulot eksport qilish moliyaviy risk darajasi bo'yicha farq qiladi. Shu sababli sug'urta mukofotlari va kafolat shartlari ham risk darajasiga moslashtirilishi lozim.

Factoring va forfeyting xizmatlari xalqaro savdo moliyasida eksportchi korxonalarining likvidligini ta'minlovchi muhim instrumentlar hisoblanadi. Faktoring odatda qisqa muddatli debitorlik qarzlarni moliyalashtirishga xizmat qilsa, forfeyting yirik va uzoq muddatli eksport shartnomalari bo'yicha kelgusi tushumlarni diskontlash imkonini beradi. Milliy bank tizimida ushbu mahsulotlarni kengaytirish eksportchilarning tashqi xaridorlarga to'lov muddatini berish imkoniyatini oshiradi va raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

Xorijiy tajriba milliy amaliyotga to'g'ridan to'g'ri ko'chirilmasligi, balki mamlakatning moliya bozori rivojlanish darajasi, eksport tarkibi, banklar kapitallashuvi va sug'urta bozori imkoniyatlariga moslashtirilishi kerak. O'zbekistonda eksport tarkibida sanoat tovarlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xizmatlar va qayta ishlangan mahsulotlar ulushini oshirish maqsad qilingani sababli moliyaviy qo'llab-quvvatlash ham tarmoqlar kesimida differensial yondashuvga asoslanishi lozim.

Eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning makroiqtisodiy ta'siri birinchi navbatda valyuta tushumlari barqarorligida namoyon bo'ladi. Valyuta tushumlari import to'lovlari, tashqi qarzlarga xizmat ko'rsatish, xalqaro zaxiralar barqarorligi va milliy valyutaga ishonch uchun muhim manba hisoblanadi. Eksport operatsiyalari moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlanganda korxonalar tashqi shartnomalarni o'z vaqtida bajaradi, bu esa valyuta tushumlari oqimini prognozlash imkoniyatini oshiradi.

Ikkinchi ta'sir yo'nalishi ishlab chiqarish zanjirlari barqarorligi bilan bog'liq. Eksportchi korxonalar odatda ta'minotchilar, transport kompaniyalari, qadoqlash, sertifikatlashtirish va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan bog'langan bo'ladi. Eksport shartnomasi moliyalashtirilsa, ushbu zanjirdagi barcha ishtirokchilar uchun talab barqarorlashadi. Natijada eksportni qo'llab-quvvatlash faqat bitta korxonaga emas, balki butun tarmoq va hududiy iqtisodiy faollikka multiplikativ ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi ta'sir yo'nalishi bank tizimi orqali yuzaga keladi. Eksportoldi kreditlari, faktoring va kafolat mahsulotlari banklar aktivlarini diversifikatsiya qiladi. Agar bu operatsiyalar sug'urta va davlat kafolatlari bilan qo'llab-quvvatlansa, banklar eksport sektoriga resurs ajratishda faolroq bo'ladi. Bu bank tizimida real sektor bilan bog'liq moliyaviy mahsulotlar ulushini oshiradi va kredit portfeli sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

To'rtinchi ta'sir yo'nalishi budjet barqarorligi bilan bog'liq. Qisqa muddatda kompensatsiya va kafolatlar davlat uchun xarajat sifatida ko'rinsa-da, o'rta muddatda eksport hajmi, ishlab chiqarish, ish haqi va foyda ko'rsatkichlari o'sishi orqali soliq bazasi kengayadi. Demak, eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash to'g'ri maqsadli va natijaga bog'langan holda amalga oshirilsa, u fiskal barqarorlikni zaiflashtirmaydi, aksincha, budjet daromadlarining uzoq muddatli manbalarini mustahkamlaydi.



Beshinchi ta'sir yo'nalishi hududiy rivojlanish bilan bog'liq. Eksportchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash hududlarda qayta ishlash sanoati, logistika markazlari va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantiradi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, oziq-ovqat sanoati, to'qimachilik, qurilish materiallari va xizmatlar eksportida hududiy korxonalar ulushini oshirish ichki iqtisodiy faollikni kengaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, eksport operatsiyalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. U korxonalarining aylanma mablag'lari uzluksizligini ta'minlaydi, tashqi xaridorlar bilan bog'liq risklarni kamaytiradi, valyuta tushumlari barqarorligini oshiradi va eksport geografiyasini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, moliyaviy qo'llab-quvvatlash samaradorligi uning maqsadliligi, natijaviyligi va riskka moslashtirilganligi bilan belgilanadi.

Birinchi, eksportdagi moliyalashtirishni eksport shartnomasi sifati, xaridor ishonchligi va valyuta tushumi prognozlariga asoslangan skoring tizimi bilan bog'lash zarur. Bu eksportchi korxonalarining kreditdan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi va banklar uchun risklarni aniq baholash imkonini beradi.

Ikkinchi, eksport kreditlarini sug'urtalash, bank kafolatlari va kompensatsiya instrumentlarini yagona elektron platformada integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv eksportchi uchun ma'muriy xarajatlarni kamaytiradi, moliya institutlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini tezlashtiradi va qo'llab-quvvatlash jarayonlarining shaffofligini oshiradi.

Uchinchi, transport, sertifikatlashtirish va tashqi bozorga kirish xarajatlarini kompensatsiya qilish mexanizmlarini eksport natijalari bilan bog'lash lozim. Kompensatsiya faqat xarajatni qoplash emas, balki yangi bozor, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulot va valyuta tushumi bilan bog'langan rag'batlantiruvchi instrument bo'lishi kerak.

To'rtinchi, eksport faktoringi va forfeytingini rivojlantirish eksportchi korxonalarining debitor qarzlari likvid mablag'larga aylantirish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, uzoq to'lov muddatlariga ega shartnomalar bo'yicha moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Beshinchi, eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlarini KPI va post-monitoring tizimi orqali baholash zarur. Davlat resurslari eksport tushumi, kredit qaytimi, yangi bozorlar, ish o'rinlari va qo'shimcha qiymat kabi natijaviy ko'rsatkichlarga bog'langan holda taqsimlanganda, eksportni qo'llab-quvvatlash tizimining fiskal va iqtisodiy samaradorligi oshadi.

Umuman, eksport operatsiyalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish O'zbekiston iqtisodiyotida tashqi savdo barqarorligi, valyuta tushumlari mustahkamligi, sanoat kooperatsiyasi kengayishi va xususiy sektor raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur yo'nalishdagi islohotlar moliyaviy siyosat, sanoat siyosati va tashqi savdo siyosatining o'zaro uyg'unlashgan modeli asosida amalga oshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-maydagi "Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug'urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4337-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-4351732?ONDATE=11.11.2023>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-oktabrdagi "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6091-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5060630?ONDATE=03.05.2024>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5184-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5510356?ONDATE2=15.03.2024&action=compare>
4. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-avgustdagi 512-son qarori bilan tasdiqlangan eksport qiluvchilar garov sifatida sug'urta xizmatlaridan foydalanganda sug'urta mukofoti xarajatlarini kompensatsiya qilish tartibi. <https://lex.uz/docs/7684425?ONDATE=14.08.2025>
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 2025-yil yanvar–dekabr yakunlari bo'yicha tashqi savdo aylanmasiga oid rasmiy press-relizlar.
6. World Trade Organization. *Trade Finance and SMEs: Bridging the Gaps in Provision*. Geneva: WTO.
7. International Chamber of Commerce. *Global Survey on Trade Finance*. Paris: ICC.
8. OECD. *Export Credits and Export Credit Agencies: Policy Frameworks and Risk Management Approaches*.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>